



## BIBLIOGRAFIK MENEJER IMKONIYATLARI

**TATU, Axborot -kutubxona-tizimlari kafedrası v.b. dotsenti G.Ziyodullayeva**

**Annotatsiya:** Ushbu ishda zamonaviy ilmiy-tadqiqot jarayonlarida bibliografik menejerlarning (Mendeley, Zotero, EndNote va boshqalar) o‘rni, ahamiyati va ulardan foydalanish texnologiyalari yoritilgan. Maqolada tadqiqotchilar tomonidan adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish, matn ichida iqtiboslar keltirish va axborot manbalarini tizimlashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu dasturiy ta‘minotlarning xalqaro ilmiy ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiyasi, jamoaviy ishlash imkoniyatlari hamda mualliflar vaqtini tejashdagi yuksak samaradorligi ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ilmiy maqola va dissertatsiyalarni nashrga tayyorlash sifatini oshirish maqsadida zamonaviy bibliografik menejerlardan umumli foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** bibliografik menejer, ilmiy tadqiqot, iqtibos keltirish, Mendeley, Zotero, adabiyotlar ro‘yxati, axborot manbalarini tizimlashtirish, avtomatlashtirish, xalqaro bazalar.

Bibliografik menejer - bu bibliografik ma‘lumotlarni, to‘liq matnli matnlarni saqlash va bibliografiyalar va ma‘lumotnomalarni formatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan bibliografiyani boshqarish dasturi hisoblanadi [1].

Dastur foydalanuvchilarga asosiy manbalarni yuklab olish va kelgusi nashrlar uchun bibliografiyalarni tayyorlashni avtomatlashtirish imkoniyati bilan ilmiy adabiyotlarga ma‘lumotnomalarning shaxsiy (jamoaviy) kutubxonasini yaratish va saqlash imkonini beradi. Ikkita o‘zaro ta‘sir variantlari mumkin: menejerni matn muharririga joylashtirish yoki sodda dasturiy ta‘minotni amalga oshirishda tayyorlangan ma‘lumotnomani bufer orqali eksport qilish.

Bu shaxsiy kompyuterlar uchun dasturiy mahsulotlar bo‘lib, odatda Windows operatsion tizimi uchun yechim sifatida taklif etiladi va hech qanday qo‘shimcha texnik yoki dasturiy vositalarni talab qilmaydi. Ular foydalanuvchiga ilmiy adabiyotlarga havolalarning shaxsiy (jamoaviy) kutubxonasini yaratish va yuritish, asl manbalarning o‘zini yuklab olish hamda tayyorlanayotgan nashrlar uchun adabiyotlar ro‘yxatini tuzishni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Bibliografik menejerni tanlashda siz statsionar dasturni o‘rnatishingiz, onlayn ishlashingiz yoki universal (onlayn + oflayn) tarzda foydalanishingiz mumkin.





Mendeley, EndNote, Zotero, Google Scholar kabi universal bibliografik menejerlar ham yakka tartibdagi foydalanuvchilar, ham ilmiy jamoalar uchun mos keladi [32].

Bibliografik menejerlarning imkoniyatlari:

- Moslashuvchanlik: Turli ilmiy sohalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan;
- Integratsiya: Ilmiy davriy nashrlar ma'lumotlar bazalari bilan bog'lanish imkoniyati;
- Ko'p funksiyalilik: Qidiruv, saqlash, tizimlashtirish, to'plamlar ichidan qidirish, iqtibos keltirish va jamoaviy ishlash kabilar (1-jadval).

1-jadval



**Bibliografik menedjer imkoniyatlari**

№	Bibliografik menedjer imkoniyatlari	Dastur logotipi
1.	<p>Mendeley (Elsevier) - bibliografik ma'lumotlar bilan jamoaviy ishlash xizmatlarini taqdim etuvchi platforma bo'lib, u olimlarning o'z nashrlari asosida ijtimoiy tarmoq yaratish maqsadida ishlab chiqilgan <sup>1</sup>.</p> <p>Ushbu platforma orqali siz quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lasiz:</p> <p>Siz uchun qiziqarli bo'lgan olimlarning har qanday faoliyatini kuzatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Olim tomonidan joylashtirilgan barcha yangiliklardan xabardor bo'lish;</li> <li>• U ishtirok etmoqchi bo'lgan konferensiyalar va boshqa nashriyotlarga taqdim etgan maqolalarini ko'rib borish;</li> </ul> <p>Bundan tashqari, har qanday maqolaga sharh va izohlar qoldirish imkoniyati mavjud .</p>	
2.	<p>EndNote (EndNote Online platformasi) — havolalar va bibliografiyani boshqarish uchun qo'llaniladigan bibliografik ma'lumotlarni boshqarish tizimidir. Dasturning bepul paketi uning onlayn talqini — EndNote Online ko'rinishida taqdim etiladi <sup>2</sup>.</p>	

<sup>1</sup> <https://www.mendeley.com>

<sup>2</sup> <https://endnote.com>



	<p>EndNote kutubxonasi yaratish sizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Web of Science bazasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z EndNote kutubxonangizga havolalar qo‘shish;</li> <li>• Havolalarni istalgan vaqtda kirish va foydalanish uchun maxsus jildlarga (papkalgaga) joylashtirish;</li> <li>• Turli nashr uslublaridan foydalangan holda formatlangan havolalar ro‘yxatini yaratish;</li> <li>• Tashkilotingizdagi istalgan kompyuterdan o‘z EndNote kutubxonangizga kirish imkoniyatiga ega bo‘lish.</li> </ul>	
<p>3.</p>	<p>Bu yakka tartibdagi va jamoaviy ishlash uchun mos keladigan, maqolalarning to‘liq matnlarini shaxsiy yoki jamoaviy kutubxonangizda bulutli saqlash imkonini beruvchi bibliografik menejerdir <sup>3</sup>. Zotero - bu Firefox yoki Chrome brauzerlari uchun plagin ko‘rinishida ishlab chiqilgan referatlash uchun shaxsiy ilovadir. Zotero tadqiqot manbalarini to‘plash, boshqarish va ulardan iqtibos keltirish uchun mo‘ljallangan bepul va foydalanish uchun qulay kengaytma hisoblanadi. U aynan tadqiqot ishlaringiz ketayotgan joyda - brauzerning o‘zida ishlaydi. Zotero axborot menejerining vazifasi foydalanuvchining ma’lumotlar bazasini tashkil etish, shuningdek, unda keng tarqalgan turdagi kontentlarni qulay tarzda saqlashni ta’minlashdan iborat.</p>	
<p>4.</p>	<p>Bu onlayn rejimdagi shaxsiy ma’lumotlar bazasi va bibliografiya yaratuvchisidir. RefWorks — bibliografik ro‘yxatlar va ma’lumotlar bazasi menejeri bo‘lib, u foydalanuvchilarga matnli fayllardan yoki Internetdagi ma’lumotlar bazalaridan</p>	

<sup>3</sup> <https://www.zotero.org/>





	<p>havolalarni import qilish orqali shaxsiy ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi.</p> <p>RefWorks bibliografik tavsiflarni import qilishda mualliflar, deskriptorlar va davriy nashrlar ko'rsatkichlarini avtomatik ravishda yaratadi, shuning uchun qidirish uchun faqat kerakli so'zni tanlash («bosish») kifoya.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• “Tezkor qidiruv” (Quick Search) buyrug'i yordamida eng to'liq natijaga erishish uchun barcha maydonlar bo'ylab qidiruvni amalga oshirish mumkin.</li> <li>• “Kengaytirilgan qidiruv” (Advanced Search) buyrug'i esa maxsus terminlar va maydonlar doirasida qidiruvni chegaralash (aniqlashtirish) imkonini beradi.</li> </ul> <p>Dasturdan 30 kun davomida bepul foydalanish imkoniyati taqdim etiladi.</p>	
5.	<p>Bu havolalarni va tadqiqot bo'yicha qaydlarni tashkil etish, havolalar va bibliografik ro'yxatlarni avtomatik ravishda yaratish, Internetdan bibliografik ma'lumotlarni izlash va olish, shuningdek, bibliografik ma'lumotlar bazalarini tarmoqqa joylashtirish uchun mo'ljallangan dasturdir. mavjud.</p>	

Bibliografik menejerlar - bu shaxsiy bibliografik havolalar ro'yxatini (ma'lumotlar bazasini) yaratish uchun mo'ljallangan vositadir.

Ularning quyidagi turlari mavjud:

- Onlayn variantlar: Ilmiy-metrik referativ ma'lumotlar bazalari yoki ilmiy ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiyalashgan (agar havolalar foydalanilayotgan bazada mavjud bo'lsa, bu yangi manbalarni qo'shishni osonlashtiradi);
- Mahalliy dasturlar: Shaxsiy kompyuterga alohida o'rnatiladigan variantlar.

Bibliografik dasturlar bilan ishlash juda qulay, chunki mavjud ma'lumotlar bazasidan jurnal tahririyati (yoki OAK) talab qilgan uslubda rasmiylashtirilgan adabiyotlar ro'yxatini dasturdagi tayyor shablonlar yordamida tezkorlik bilan olish mumkin.





Ko‘plab zamonaviy jurnallar o‘z saytlarida maqolalarni e‘lon qilishda, har bir maqola tavsifi yonida uning eng keng tarqalgan bir nechta formatdagi bibliografik tavsifini ham joylashtiradilar. Bunda ushbu tavsiflarni yuklab olish va istalgan havolalar menejriga import qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Павлова И.Ф. Библиографическая деятельность библиотеки : учеб.-метод. пособие / сост. И.Ф. Павлова. – Ижевск : Удмуртский университет, 2024. – 133 с.
2. Normatov Sh.B. Axborot va kutubxona fanlarida ilmiy izlanishlar usullari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: e-line praess.-168b.
3. Maxmudov M., Ziyodullayeva G. Umumiy bibliografiya: o‘quv qo‘llanma / M.Maxmudov, G.Ziyodullayeva.-Toshkent: Aloqachi,2019.-256b.
4. Коготков Д.Я. Библиографическая деятельность библиотеки: организация, технология, управление: учебник.- Санкт-Петербург, 2003.- 304 с.